

MILLIY MUSIQA NAMUNALARINING KOMPOZITORLIK IJODIYOTIDA O'RGANILISHI**Siddiqov Nursulton Siddiq o'g'li**

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası 12-1 vokal 20 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy musiqa namunalarining kompozitorlik ijodiyotida o'rganilishi, uning zamonaviy taraqqiyot bosqichlari haqida so'z boradi. Maqomlarga xos ritmik shakllar, kuy qatlamiga doir tovush qatorlar, kuyning ko'lamdorlik sifatlari doimiy ravishda kompozitorlarning ijodiy tajriba izlanishlarida o'z o'rni va ahamiyatiga ega bo'lib kelmoqda.

Аннотация

В данной статье говорится об исследовании образцов национальной музыки в творчестве композиторов и этапах ее современного развития. Ритмические формы, характерные для состояний, звуковые линии, относящиеся к пласту мелодии, качество объема мелодии постоянно приобретают свое место и значение в поисках творческого опыта композиторов.

Annotation

This article talks about the study of samples of national music in the works of composers and the stages of its modern development. Rhythmic forms characteristic of states, sound lines related to the layer of melody, the quality of the volume of the melody constantly acquire their place and meaning in the search for the creative experience of composers.

Kalit so'zlar: Maqom, kompozitor, ong, tafakkur, salohiyat, iqtidor, dunyoqarash, obraz, ritm, obrazlilik, mushohada.

Milliy musiqamiz uzoq o'tmishdan bizgacha yetib kelgan bebaho musiqiy merosdir. Uning ma'naviy tafakkuri, obrazli dunyosi, badiiy mohiyati, ifoda vositalari ko'lami ko'p asrlar davomida sayqallanib, Markaziy Osiyo musiqa madaniyatiga xos falsafiy-estetik dunyoqarashdan dalolat beradi.

Musiqamizda mujassam teran falsafiy mushohadaviylik Sharq musiqa madaniyatiga tegishli bo'lgan ma'naviy-estetik tamoyildir. Unga misol qilib maqomlarimizni keltirish mumkin. Qadim zamon ijodkorlari ushbu ifodaviylik prinsipidan foydalanar ekan, o'sha zamonga xos ijodiy fikrlash va uni yaratuvchilikda qo'llashning yorqin namunasini aks ettirgan. Unga ko'ra, ijodiy g'oyani (asarni) bosqichma-bosqich mulohaza etishda fikrlash jarayonining o'zi ham ulkan falsafiy mushohada obrazini vujudga keltirib, umumiy voqelikning ifodasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Milliy musiqamiz bugungi kun kompozitorlik ijodiyoti uchun uning milliy-ma'naviy kamolotga erishish yo'lida beqiyos ijodiy namuna-saboq va ilhom manbai bo'lgan maydondir. Maqom asarlarida aks etadigan musiqiy-nazariy tuzilmalar, ijodiy yechimlar, shaklu shamoil ko'rinishlari, ohangning harakatlanishi va avjga chiqish yo'llari, she'riy matnning musiqiy mato bilan hosil qiladigan uyg'unligi kabi ifoda vositalari milliylikka erishishning o'ziga xos imkoniyatini namoyish etadi. Shu bilan birga, azaliy milliy mentalitetga xos xususiyatlarning ijodkorlikda namoyon bo'lishidan saboq beradi.

O‘zbekiston kompozitorlik san’atiga nazar tashlaganda, unda milliy musiqa asarlariga murojaat etishning samarali ijodiy amaliyotini kuzatish mumkin. Maqomlarga xos ritmik shakllar, kuy qatlamiga doir tovushqatorlar, kuyning ko‘lamdorlik sifatlari doimiy ravishda kompozitorlarning ijodiy tajriba izlanishlarida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lgan. Shunga ko‘ra, ushbu amaliyotni shartli ravishda quyidagi uch bosqichga bo‘lish mumkin:

- **birinchi bosqich** - XX asrning birinchi yarmi kompozitorlik maktabini mustahkam egallash va ravnaq toptirish davri bo‘lib, unda ijodkorlar milliylikka erishishning turli yo‘llaridan foydalangan. Shulardan biri – kuyini maqom uslubida yaratish usuli bo‘lgan bo‘lsa, keyingisi – bevosita maqom kuylarini ishlatishdir. Asarni yaratishda bevosita maqom kuyidan foydalanish jarayonida maqom kuyini musiqiy asarga bekamu ko‘st tushirish, uni kuyga putur yetmaydigan darajada garmoniyalash va cholg‘uning ijro ifodaviyligiga erishish kabi vazifalar asosiy maqsad qilib belgilangan. O‘sha davrda yaratilgan simfonik hamda sahnaviy asarlar, jumladan, operalarga maqom kuylari singdirilgan.

“Farhod va Shirin” (В.Успенский, Т.Содиқов), “Layli va Majnun” (Р.Глиэр, Т.Содиқов), “Dilom” (М.Ашрафий) kabi o‘sha davrning ilg‘or sahnaviy namunalarida maqom asarlarining yirik bo‘laklari ishlatilganini ko‘rish mumkin.

Milliykuylarini ishlatishda, avvalo, unga akademik musiqaga doir garmoniya qo‘llanilgan. Kuyini simfonik orkestr partiturasiga moslashtirishda orkestrning barcha tembr-koloristik bo‘yoqlari bilan boyitish hamda musiqiy matoni polifonik imkoniyatlar bilan kengaytish kabi ijodiy jarayonlar kuzatiladi.

- **ikkinchi bosqich**- XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda maqom san’atiga bo‘lgan munosabat uning g‘oyaviy yuksalishi tomon o‘zgardi, deyish mumkin. Ya’ni milliy musiqa san’atimiz o‘zining yuksak maqomiga ega bo‘ldi.

Shunga ko‘ra, endilikda kompozitorlarning milliy musiqalarimizni anglashga bo‘lgan harakati keng ko‘lamli, chuqur g‘oyaviy-obrazli asarlarning ro‘yobga kelishini ta’minladi. Kompozitorlar (Т.Қурбонов, М.Тожиёв, М.Махмудов) o‘z asarlarida muhim bir ijodiy fikrni o‘rtaga tashlar ekan, uning ahamiyatini yanada kuchaytirish maqsadida uni aynan maqom kuyi (Segoh, Dugoh, Navo) orqali ifodalash prinsipini qo‘lladilar. Bu hol asar dramaturgiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, umumiy ohang matosining maqom ohang dunyosiga yaqinlashuvini ta’minlashga xizmat qildi.

Maqom san’atiga murojaat etish bilan bog‘liq ikkinchi bosqichdagi estetik tafakkur birinchi bosqichdan farq qiladi. Bunda kompozitorlar maqomga xos musiqiy ifoda vositalarining mazmun-mohiyatini chuqur anglab, shu vositalarning o‘zidan garmonik va polifonik mato yasaganini ko‘ramiz. Bu hol o‘zbek kompozitorlik ijodiyotining jahon musiqasi taraqqiyoti nuqtai nazaridan katta ahamiyatga molik bo‘lgan o‘ziga xos muvaffaqiyat pog‘onasini aks ettirdi.

- **uchinchi bosqich** - XXI asr – mustaqillik sharoitida milliy o‘zlikni anglash, madaniy-ma’naviy qaddriyatlarni tiklash barobarida kompozitorlik ijodiyotida xam ifoda vositalarini qayta anglash hamda obrazli dunyoga bo‘lgan munosabatning tubdan o‘zgarishi kuzatiladi. Bu davrda maqom asarlaridan foydalanishning ahamiyati o‘zgacha. Endilikda kompozitorlar (Ж.Шукуров, А.Ким) maqom asarlari bilan ish olib borishda uning obrazli-psixologik dunyosini aks ettirish yo‘lidan bormoqda. Bunda maqom falsafasi kosmik tafakkurda o‘z ifodasini topishi kompozitorlik san’atida yangi tendensiyaning belgilab beradi. Ya’ni, musiqiy jarayonda maqom asarining vujudga kelish vaqtidagi ijodkorning ruhiy-

ma'naviyholatini anglash va ushbu holatni musiqada aks ettirish bilan bog'liq makon ohangdorligi dunyosi va ohang tafakkuri aks etadi.

XXI asrga kelib, musiqiy asarning yaratilishiga omil bo'lgan ma'naviy-ruhiy ta'sirning ahamiyatini o'rganish, shu bilan birga, uning vujudga kelishi bilan bog'liqshart-sharoitga nisbatan bugungi kun nazari bilan qarash va uni aks ettirishga intilish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bunday ma'naviy-ruhiy manzarani aks ettirish uchun endilikda nafaqat maqom asarlariga xos estetik vositalar, balki jahon musiqa ijodkorligida ishlatiladigan barcha musiqiy-texnik uslub va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Milliy musiqamiz o'zining ichki kompozitsion tuzilishi, so'z va musiqa vobastaligi hamda badiiy-obrazli dunyosi orqali bugungi kun ijodkori uchun ulkan axborot maydonini tashkil etadi. U uzoq tarix ijodkorlarining kuch va irodasi, ilhom va ixlosi aks etgan qimmatli merosni bizgacha yetkazib berar ekan, ko'plab asrga tatigulik musiqiy-ma'naviy ozuqa beradigan ulkan salohiyatga ega.

FOYDALANGAN ADABUYOTLAR RO'YXATI:

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.

2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.

3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..

4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339

5. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 88-91.

6. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021. O 77.Ramazonova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.

8.Д Ramazonova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.

9.ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАУКЕ ОБ ОСНОВАХ ТЕХНИКИ ПЕНИЯ. Угилой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова. 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том1Номер 6 Страницы 94-96

10. ВНЕДРЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ВСОЗНАНИИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. Угилой Холмуродовна Рамазанова, Малика Курбановна Нематова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том 1 Номер 6 Страницы 97-99

11.Behrux BoltayevHamidovich INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM. *Academia Science Repository*, 4(04), 1063–1066. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/90>

12. Behruz Boltayev Hamidovich. (2023). AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF "IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION. *Academia Science Repository*, 4(04), 102–104. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/414>
13. Boltayev B. H. The content and methodology of the process of establishing the voice of students in singing //МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-188.
14. Boltayev B. H. Vuxoroshashmaqomidoyrausullari ijrolaritalqini //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-74.
15. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.
16. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 191-194.
17. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.
18. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.
19. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.
20. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatini Tutgan O'Rni. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>
21. Артыкова, Э. ., & Рузиева, З. (2022). ВЕЛИКОЕ БЛАГОСЛОВЕНИЕ – ПЕСНЯ ШАШМАКОМ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 1(2), 22–24. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/6459>
22. E Ortiqov. Historical Analysis of National Musical Heritage and Moral-Aesthetic Education in Music and Art Schools of Uzbekistan . 2023/8/20 Academic Journal Publisher <http://dspace.umsida.ac.id/handle/123456789/5948>
23. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.
24. Mustafaev B. FROM THE HISTORY OF MUSIC EDUCATION AND PEDAGOGICAL SYSTEM ACTIVITY IN UZBEKISTAN IN THE 1950s-1970s //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1007-1012
25. Мустафаев Б. “БУХОРЧА” ВА “МАВРИГИ” МУСИҚИЙ ТУРКУМЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ, МАЪНАВИЙ–МАЪРИФИЙ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТРАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
26. Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО

ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99).
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklora-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

27. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi // IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 6. – С. 139-145.

28. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) // Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

29. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) // Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

30. БОЛТАЕВ Б. Х. ПРОБЛЕМЫ НАУКИ // ПРОБЛЕМЫ НАУКИ Учредители: Олимп. – №. 4. – С. 98-100.

